XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-93-257-14-0-K/23 Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahrida ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi Qonunining 45–47-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 25-sentabrdagi PF–6074-son Farmoniga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 15-sentabrdagi 475-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 23-oktabrdagi 01-3/2113-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi Qonunining 45-47-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 15-sentabrdagi 475-son qarori ma’lumot va ijro uchun;

“Toshkent shahar suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori M.Abbasxanovning ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari yuzasidan taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahrida ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilgan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari (Sh.Raximdjanov), “Toshkent shahar suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati (M.Abbasxanov) tuman hokimliklari bilan birgalikda:

Toshkent shahrida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, aholini toza ichimlik suvi va oqova (kanalizatsiya) suvidan mavjud qarzdorligini qisqartirish va ularning oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

ichimlik suvidan samarasiz yoki noqonuniy foydalanishlarning oldini olish;

jamiyatning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilash, tarmoqdagi avariya holatlarini o‘z vaqtida bartaraf etish;

Toshkent shahri aholisining markazlashgan ichimlik suvi ta’minotiga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganib borish, mahallalarda suv ta’minotidagi uzilishlarning oldini olish hamda kuz-qish mavsumida ichimlik suvi ta’minotini barqaror yetkazib berilishini nazorat qilish;

ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ichimlik suvi resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, ularni isrof qilmaslik yuzasidan targ‘ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish vazifalari yuklatilsin.

4. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmatiga ushbu qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrida ichimlik va oqava suv xizmatlari tariflarini ma’qullash to‘g‘risida” 2020-yil 30-dekabrdagi 258/30-6-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Jiyanbayev va Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari v.v.b. Sh.Raximdjanov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **T. Matibayev**

Xalq deputatlari Toshkent shahar
Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-257-14-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahrida ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilgan narxlar (tariflar)

Xizmat turi	**Amaldagi narx (tarif)** *(so'm)*	**Taklif etilayotgan narx (tarif)** *(so'm)*
Ichimlik suvi narxi		
Aholi uchun 1 m3	400	1400
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	400 (QQS siz)	1400 (QQS siz)
Ulgurji iste'molchilari uchun 1 m3	400 (QQS siz)	1400 (QQS siz)
Yuridik tashkilotlari uchun 1 m3	1000 (QQS siz)	3 000 (QQS siz)
Oqova suv (kanalizatsiya) narxi		
Aholi uchun 1 m3	350	1000
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	350 (QQS siz)	1000 (QQS siz)
Ulgurji iste'molchilari uchun 1 m3 Yuridik tashkilotlari uchun 1 m3	350 (QQS siz) 820 (QQS siz)	1000 (QQS siz) 2200 (QQS siz)